

инварианты “хорижлик киз асирни севади” шаклида бўлади. А.И.Белецкий кашф этиб, “Эртақ морфологияси” асарида В.Пропп амалий ривожлангирган дихотомик концепция Л.Долежал, А.Дандес, Л.Парпулова, Н.Г.Черняева каби қатор олимларнинг ишларида тугал шаклланди.

Мотивга тематик ёндашув В.Б.Томашевский, Б.В.Шкловскийларнинг ишларида назарий тавсифланган бўлса-да, илдизлари А.Н.Веселовскийдаёқ бўлган. Мотивни тема орқали тушунтираркан, В.Б.Томашевский бутун асар темаси ва ҳар бир қисм темаси мавжуд бўлишини уқдиради: “Асарни тематик қисмларга ажратиш йўли билан бориб, ниҳоят, унинг бўлинмас қисмларига, тематик материалнинг энг майда бўлақларига етиб борамиз... Асар бўлинмас қисмининг темаси мотив деб аталади. Моҳиятан – ҳар бир жумла ўзининг мотивига эга” [13:182]. Б.Томашевский талқинида мотив – темадан ҳосила тушунча, тематика доирасида ёрдамчи вазифа бажаради: фабула ва сюжетни боғлаб, улар орасидаги муносабатни аниқлашга хизмат қилади. Шундай ёндашгани учун ҳам олим А.Н.Веселовский талқинидаги “бўлинмаслик” тушунчасини инкор этмайди. Бунинг сабаби шуки, у “Қиёсий ўрганишда турли асарларда учрайдиган тематик бирлик мотив деб аталади... Бу мотивлар бир сюжет қурилмасидан бошқасига бутун ҳолича ўтади. Қиёсий поэтика учун уларни яна ҳам кичик мотивларга ажратиш мумкинлиги қизиқ эмас” [13:182] деб билади. Яъни Б.Томашевский мураса йўлини тутати: қиёсий ўрганишда бўлинмаслик принципи кераклигини эътироф этади, бунинг ўзи илгари сурган тематик концепцияга мувофиқ

эмаслигига эътибор қилмайди. В.Шкловскийнинг мотивни тушуниши моҳиятан тематик, бироқ Б.Томашевский қарашларидан сезиларли, фабула ва сюжетга алоқаси нуқтаи назаридан ҳатто бир-бирига зид. Б.Томашевский талқинида мотив асар фабуласининг тематик “ғиштча”си бўлса, В.Шкловский талқинидаги мотив сюжетнинг мазмуний “ғиштча”си, яъни фабуладан юқори мақомда. В.Шкловскийга ўхшаб, А.П.Скафтымов ҳам мотивни сюжетга, аниқроғи, асар сюжети воситасида умумлаштириётган психологик темага боғлайди. Шунга кўра, у мотивнинг бўлинмаслигини ҳам персонажнинг яхлит психологик хусусияти (“айбдорлик ҳисси мотиви”, “ҳасадгўй худбинлик мотиви” каби) билан боғлаб тушунтиради [14:33].

Юқорида мотивни ўрганишдаги асосий илмий йўналишлар – семантик, морфологик, дихотомик, тематик ёндашувлар тарихига бир қур назар ташлаб ўтдик. Мазкур илмий йўналишларнинг ютуқларига таянган ва ғояларини ривожлангирган ҳолда *мотивишунослик* (мотивика) фани шаклланган бўлиб, масалани турли аспектлардан чуқур ўрганиш узлуксиз давом этиб келмоқда. Ўтган аср ўрталаридан мотившунослик бобида фаол тадқиқотлар олиб борган С.Томпсон, А.Дандес, А.Греймас, В.Кайзер, Л.Парпулова, Л.Долежал, Ж.Женетт, Е.М.Мелетинский, Б.М.Гаспаров, А.К.Жолковский, Н.Г.Черняева, Б.Н.Путилов, Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа каби кўплаб олимларнинг илмий изланишлари мотив назариясини бойитди. Булар ҳақида кейинроқ алоҳида мақолада тўхталишни ният қилиб ҳозирча айтилганлар билан чекланамиз.

Адабиётлар

1. Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.- Т.: “Ўқитувчи”, 1979, 190-б.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.- Т.: Академнашр, 2010, 180-б.
3. Гёте И.В., Шиллер Ф. Переписка: в 2-х т. Т.1.- М.: “Искусство”, 1998, - С. 436.
4. Веселовский А.Н. Историческая поэтика.- М.: “Высшая школа”, 1989.- С.301
5. Веселовский А.Н. О методе и задачах истории литературы как науки. // Веселовский А.Н. Историческая поэтика.- М.: “Высшая школа”, 1989, - С.32-41
6. Каранг: Силантьев И.В. Поэтика мотива.- М.: Языки славянской культуры, 2004.- С.17-20
7. Проп В. Морфология сказки.- Л.: Academia, 1928.- С.22
8. Шалыгина С.Г. Понятие «мотив» и его интерпретация в теории литературы и музыке // Социально-экономические явления и процессы.- 2001. №1(035).- С.250-254
9. Мелетинский Е.М. Семантическая организация мифологического повествования и проблема создания семиотического указателя мотивов и сюжетов // Учен. зап. Тартуского гос. ун-та. Вып. 635.- Тарту, 1983.- С.115-125
10. Путилов Б.Н. Веселовский и проблемы фольклорного мотива // Наследие Александра Веселовского. Исследования и материалы.- СПб, 1992.- С.74-85; Иванов Вяч. Вс. Из прошлого семиотики, структурной лингвистики и поэтики // Очерки истории информатики в России. – Новосибирск: 1998.- С.310-340
11. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа.- М.: 1976.- С.126
12. Ярхо Б.И. Методология точного литературоведения (набросок плана). Контекст –1983. – М.: 1984.- С.221-222
13. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика.- М.: Аспект пресс, 1996.- С.182.
14. Скафтымов А. П. Нравственные искания русских писателей.- М.: Художественная литература, 1972, - С.33-35

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мотив тушунчаси ва унинг адабиётшуносликдаги талқинлари, генезиси, функциялари, поэтик тизимдаги ўрни каби масалалар ёритилган. Мақолада мотив ҳақида баҳсга сабаб бўлаган айрим ғарб олимларининг қарашлари таҳлил қилинган ва асосли мулоҳазалар билдирилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается понятие «мотив» и его интерпретации в литературе, генезис, функции, место в поэтической системе. В статье анализируются взгляды некоторых западных учёных, вызвавшие споры о мотивах, и даются обоснованные комментарии.

SUMMARY

In the article, the author discusses the concept of motive and its interpretation in the literature, genesis, functions, place in the poetic system. In the article the author analyzes the views of some Western scholars that have caused controversy about motives, and substantiated comments are given.

ShE'RIY MATNDA AYOL NUTQIGA XOS LEKSEMALARNING BADIYATI

N.Salohiddinova - mustaqil izlanuvchi

Andijon davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: badiiy asar tili, gender lingvistika, nutqiy xoslanish, nutqiy odat, vulgar soʻzlar, oʻzbek ayoli timsoli, gender omillari

Ключевые слова: язык художественного произведения, гендерная Лингвистика, речевое происхождение, речевая привычка, вульгарные слова, образ узбекской женщины, гендерные факторы

Key words: language of the literary-artistic work, gender linguistics, speech origin, speech habit, vulgar words, the image of the Uzbek woman, gender factors

KIRISH. Soʻz voqelikni tasvirlashda, maʼlum axborotni yetkazishda asosiy quroldir. Shunday ekan, ijodkor

yaratgan asarida oʻz tilining imkoniyatlaridan kelib chiqib, soʻzning bor jozibasidan foydalanadi. Buning natijasida

badiiy asarning estetik qiymati va ijodkorning individual uslubi shakllanadi. Ko'rinadiki, yozuvchi til imkoniyatlaridan foydalanib, badiiy asarning izchil va mukammal yaratilishiga erishadi. Bunda jonli so'zlashuv tili badiiy asar uchun asosiy omil bo'lsada, so'zning sayqal topishida ijodkor mehnati ham katta rol o'ynaydi. Negaki so'z zamiriga yozuvchining his-tuyg'usi, fantaziyasi qorishib ketadi. Bu hol ayniqsa she'riyatda yana ham aniq ko'rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. “Adabiyot nazariyasi”ning birinchi tomida asarda til xususiyatlarini topish va uni estetik kategoriya sifatida baholash ancha mushkul ish ekanligi qayd etiladi va quyidagi fikrlar keltiriladi: “...badiiy til asardagi obrazlar, xarakterlar va boshqa komponentlarga singib ketgan bo'ladi, ularning tarkibiga kirib, ajralmas hodisaga aylanadi. Badiiy tilni tadqiq qilganingizda, har bir gap va jumladan ma'lum mavzu va g'oya, ma'lum obraz va xarakter, ma'lum syujet va konfliktning alohida zarrachalari chiqib kela boshlaydi” [2:313]. Bu mulohazalardan badiiy tilning qiymati va estetik ta'siri asarning barcha kategoriyalarida namoyon bo'lishi ko'rinadi. Ya'ni, badiiy asar tili o'sha asarning qaysi mezonlar asosida tahlil qilinishiga qarab, o'zining jozibasini namoyon etaveradi.

Yuqoridagi fikrlar she'riyat tilida biroz farq qilishi mumkin. Chunki she'rda ifoda va his-tuyg'u asosiy o'rinda bo'lib, badiiy til ham bu o'rinda o'zining estetik ta'sir quvvatini yanada yorqin bo'yoqlarda ko'rsata oladi.

Shuningdek, badiiy til imkoniyati u yoki bu ijodkor uslubini belgilashda asosiy kategoriya sifatida muhim vazifani bajara oladi. Bunday qarashlar va badiiy asar tili haqida ilgari surilgan fikrlar hozirgacha ilmiy tahlilda asosiy mezon bo'lib kelmoqdaki, natijada badiiy asar tili haqida hozirgacha ko'plab o'xshash fikrlar paydo bo'lmoqda. Jumladan, Adabiyotshunos D. Quronov badiiy asar tilini yuzaga chiqaruvchi badiiy tasvir va ifoda vositalari haqida fikr yuritib: “Avvalo tilning badiiyligi badiiy tasvir va ifoda vositalari bilan belgilanmaydi, ular ishlatilmagan holda ham badiiy tilning bosh spesifik xususiyatlari – obrazlilik (tasviriylk) va emotsionallik mavjud bo'la oladi” [5:51] deb fikr bildiradi.

Xuddi shunga mos ravishda E. Xudoyberdiyev ham: “Voqelikni so'z yordamida obrazli aks ettirishda yozuvchi o'z milliy tilining butun boyligidan, bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan unumli ravishda bahra oladi. Obrazni vujudga keltirish uchun har doim maxsus so'zlardan, xususan, o'xshatish, epitet, istiora, jonlantirish singari tasviriyl vositalardan foydalanish shart emas. Albatta, bunday vositalar ham adabiyotda ahamiyatga ega, lekin obraz hosil etishning eng asosiy shartlaridan biri shuki, u o'z o'rnida, zarur joyda qo'llanishidan, mazmundor bo'lishidan iborat” [6:94]ligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, badiiy asarda, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, she'riy matnda til badiiylkni ta'minlovchi vosita bo'lishi bilan bir qatorda, mustaqil holda tasviriylk va emotsionallikni saqlab qoluvchi asos sifatida talqin qilinadi.

Badiiy asar tili o'sha asarning ichki komponentlari bilan birgalikda tahlil qilinarkan, demak ular bir butunning turli qirralari bo'la oladi, nazarimizda.

O'rganmoqchi va tahlil etmoqchi bo'lgan bugungi zamonaviy she'riyat ham tili va ifoda uslubi bilan yangicha qarashlarga turtki berishi mumkin. Chunki, yangilangan she'riyatda “insonning qalbi”, “insonning ko'ngli” bosh tavar ob'yektiga aylanib ulgurmoqda. Bu esa she'riy matnda yangicha tashbehu, o'zgacha fikrlashning shakllanishiga sabab bo'layotir. Fikrlashdagi xilma-xillik esa o'z navbatida gender lingvistikasida ham o'zining takrorlanmas qiyofasini ko'rsatib ulgurmoqda.

Gender – inglizcha “gender” – “zot” so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi [7:185].

Bu atama zamirida erkak va ayol o'rtasidagi biologik farqlanish bilan bir qatorda ijtimoiy omillar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va indvidlarning psixologik tavsiflarida ko'plab farqlar mavjudligini ham ko'rsatadi.

Zamonaviy tilshunoslikning yangi sohasi sifatida shakllanayotgan gender lingvistikasi bugungi kunda hali o'zining to'liq ifodasini topib ulgurmagan. Ayniqsa, badiiy asarning bosh mezon – inson obrazi badiiy asarda jins nutqining nuqtai nazaridan ham baholanishi fan uchun katta vazifalardan biridir. Chunki badiiy asar tili o'z imkoniyatlarini badiiy tasvir va ifoda vositalari, milliy kolorit nuqtai nazari bilan ham yetarlicha o'rganilib kelmoqda.

She'riyatda voqelikni tasvirlash shoir tili yoki lirik qahramon tili bilan amalga oshirilarkan, albatta bir ijodkor ikkinchi ijodkordan tasvirlash uslubining xilma-xilligi bilan farqlanadi. O'z navbatida ifodaning nutqiy xoslanishida ham tafovut seziladi. Ayniqsa, ayol ijodkorlar she'riyatida kayfiyatning tez o'zgaruvchanligi uning ijodiy nutqida yaqqol seziladi. Bu esa she'rda ruhiyatning akslanishi, ijodkor psixologiyasining esa o'zgarib turuvchi hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Zulfiya Mo'minova she'rlarida ayol tabiatiga bog'liq xislatlar asosli fikrlar bilan yoritilganligi diqqatni tortadi. Ijodkor she'r mazmuniga jamiyat ayollarining umumijtimoiy jihatlarida singdira oladi va she'rda sifatlari ayollar qalbini kuylaydigan madhiyaga aylanib ketadi. Uning “Ayolga baxt bering, saodat bering...” deb boshlanuvchi she'ri ayni haqiqatga mos ravishda yozilgandek bo'lib ko'rinadi.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib

Odatda tashqi belgilar biologik gender xoslanishni yuzaga keltiradi. Chunki ayolning kulishi, jilmayishi iborasi o'z ma'no-mazmuniga to'la mos bo'lganidek, erkak shaxsida bu to'liq ham qabul qilinadigan hodisa bo'lavermaydi, bizningcha. Aslida kulgi zamiriga o'limning, jilmayish ma'nosida dunyoning olinishi – bu ayollarning tabiiy xislatlarini, muloqot jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning ifodasi sifatida tasvirlanganligini ko'rsatadi.

She'ning keyingi bandida aynan ayollarga xos sifatlarning aniq mazmunda ko'rinishi va bu har doim ham ayollar husnini maqtashda qo'l keladigan iboraning berilishi ayol nutqida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, ayol ayolni o'zi yoqtiradigan so'z bilan e'tirof etadi va bu she'r badiiyatida samimiylkni ko'rsatadi.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Gar ko'zlari kulib tursa-da,
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat,
Oy yuzlari kulib tursa-da.

Sharqda azal-azaldan yor go'zalligi oyga qiyos etilgan holda, yuz leksemasi bilan bir butunlikka aylanib ketgan satrlar ko'plab uchraydi. Chunonchi. Hofiz Sherozivning:

Yo Rab, ul ov yuzli, vultuz chehrali oliv nishon,
Qaysi konning gavhari, kimning erur durdonasi? [3:40]
Yoki Alisher Navoiyning:

Oyu xurshidingni yig', ey charxi gardun kim bu dam,
Hamdam ul oy chehralik xurshid paykardur mango.

[1:8]
kabi baytlarda ham yor yuzining go'zalligi oyga muqoyasa qilingan.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafolat toping.
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping [4:46]

She'rda qo'llanilgan oppoq ro'mol, chaqaloq, etak kabi detallar gender xoslanishning yana bir jihatini ifodalab kelgan. Shuningdek, she'r mazmuniga ayol zotining hamisha e'tiborga, mehrga, ko'makka muhtoj o'jiza ekanligini zo'r

mahorat bilan singdirilgan.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, erkak va ayol o'rtasidagi gender xoslanish quyidagi qator mezonlarga asoslanishi va tahlil etilishi mumkin bo'ladi.

- 1) Shaxs omili
- 2) Nutqiy odatlar
- 3) Detallar
- 4) Hissiyotlar

5) Nutqiy xoslanish

Erkak va ayollarning nutqidagi farqlar yuqoridagilar bilan cheklanmaydi, balki ushbu tafovutlarning asosida jinslarning xarakteri, ruhiyati, tafakkuri o'rtasidagi farqlar, gender ko'rinishini belgilovchi normalar, insonlarning ongi va tafakkuri, ijtimoiy-ma'naviy qarashlari asosida ham takomillashadi. Bu esa nafaqat og'zaki nutqda, balki yozma – badiiy asarlarda ham o'z in'ikosini topadi.

Adabiyotlar

1. Navoiy A. Qaro ko'zim. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. -T.: 1988, 8-6.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I tom. -T.: 1978, 313-6.
3. Hofiz Sheroziy. www.ziyouz.com kutubxonasi. 40-6.
4. Mo'minova. Z. Ishq bog'ida bor edim... -T.: «SHarq», 2019, 46-6.
5. Qur'onov. D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: «Akademnashr», 2010, 51-6.
6. Xudoyberdiyev. E. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: «IQTISOD MOLIYA», 2007, 94-6.
7. Гидденс Э. Социология. -T.: «Шарк». 2002, 185-6.

REZYUME

Maqolada badiiy asar tili haqida umumiy mulohazalar keltirilgan bo'lib, unda ayol nutqiga xos leksemalar badiiyati va gender xoslanish belgilari Zulfiya Mo'minova she'rlari orqali tadqiq etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье изложены общие рассуждения о языке художественного произведения, в которых исследуются лексемы, характерные для женской речи, и признаки гендерного происхождения в стихах Зульфии Муминовой.

SUMMARY

The article contains general comments on the language of the literary work, in which the artistry of lexemes specific to female speech and the signs of gender originality were studied by in the poems Zulfiya Muminova.

ТУЙГУЛАР ИФОДАСИ ВА ТАРЖИМА

К.Ю.Ташанов - филология фанлари номзоди, доцент

Ажсиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: инсон психологияси, қахрамон характери, бадий психологизм, бадий компонент, психологик вазият, ички монолог, аслият, таржима.

Ключевые слова: психология человека, характер героя, художественный психологизм, художественный компонент, психологическая ситуация, внутренний монолог, оригинал, перевод.

Key words: human psychology, character of a hero, artistic psychologism, artistic component, psychological situation, internal monologue, original, translation.

Ёзувчи психологик таҳлил маҳорати, бадий психологизм ва унинг компонентларидаги ўзига хос хусусиятларни ўрганиш ҳамон адабиётшунослигимизнинг энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу ўринда бадий психологизмга тўхталаётганимизга сабаб шуки, бадий асардаги характер муаммоси илмий таҳлилда психологик таҳлил воситаларига мурожаат қилинади. Чунки А.Б.Есин таъкидлаганидек: «Энг аввало қандайдир ижтимоий мавқеъ асосини ташкил этган у ёки бу характерни яратар экан, ёзувчи уни персонажларга сингдириб такрорланмас хусусиятларга эга бўлган янги шахсни вужудга келтиради. Ҳақиқий ёки тўқима шахслар турғун хусусиятларининг мажмуи илмий психология ва одатий нутқда характер дейилади. Характер - бу шубҳасиз, психологик воқелиқдир» [1:4-5].

“Қорақалтоқ достони”да ички монолог психологик таҳлил шакли, характерни тасвирлашда асосий услуби сифатида кўзга ташланади. Ёзувчи ўткир сюжетли психологик вазиятларда қахрамон тақдири ҳал қилинаётган ёки кучли драматик кечинмалар билан ҳаётида катта ўзгаришлар рўй бераётган воқеаларни тасвирлайди. Бундай вазиятлардан кейин қахрамон кучли ўй-фикрларга, кечинмаларга берилади. Ана шундай кучли кечинмаларда қахрамон характери ёки характерининг бирон-бир қирраси намоён бўлади. Кучли психологик кечинмаларда ёзувчи қахрамоннинг эътиқодий тебранишларини тасвирлайди. Бунда қахрамон ё ўзининг ҳаётий ақидасини белгилаб олади, ё ҳаётий ақидасига содиқ қолади, ё ундан чекинади - иккиланади.

“Қорақалтоқ достони”да умумий ҳисобда 161 ички монолог бўлиб, адиб бу нутқ турларидан: монолог-кечинма, монолог-хотира ва монолог-муносабатни қўллайди. Ички монологнинг бу турлари ёзувчига қахрамон зоҳирий дунёсини, маънавий-ахлоқий

қарашларини кенгрок, чуқуррок ифодалашга ёрдам беради.

Ички монологларда қахрамон характери ёки унинг маълум қирраси ёрқин ифодаланиши ёйинки унда қахрамоннинг ички сезимлари, туйғу, кайфияти акс этиб, характернинг янги қирраси юзага келишига туртки бўлиши мумкин. Шунга қараб, бадий асардаги ички монологларни қуйидаги икки типга ажратиш мумкин.

1) Қахрамон характерининг қирраси ёрқин ифодаланган монологлар.

2) Фақат туйғу кайфиятлар ифодаланган монологлар.

Албатта, бу тарзда ажратиш нисбий бўлиб, ички монологларда фақат қахрамон руҳий ҳолати, фикрлаш жараёни акс этар экан, деган маънода тушунилмаслик керак. Чунки, ички монологларда ифодаланган қахрамоннинг барқарор қирраларининг йиғиндиси қахрамон характери намоён қилади. Академик М.Кўшонов: “Ёзувчи монологнинг қайси бир шаклидан фойдаланмасин, умумқонуният бор: бу - характерлар психологиясини, мазмунини тўлароқ очиб беришдир”, - дея таъкидлайди. [10:166] Лекин, масаланинг бошқа томони ҳам бор. Чунки: “...ички монолог фақат қахрамон фикрларини ифодалаш учун хизмат қилади, эмоционал ҳолатга унинг фойдаси камроқ” бўлар экан, ёзувчилар қахрамон руҳий ҳолатини тасвирлаш учун муаллиф психологик тасвирига мурожаат қилмоқдалар. [1:41-44]

Ички монологда қахрамоннинг фикр-уйлари, муаллиф психологик тасвирида эса унинг руҳий ҳолати ўз аксини топар экан, таржима жараёнида мутаржим булардан бирини иккинчиси билан алмаштиради, ёки қахрамоннинг ўй-фикрларини муаллиф психологик тасвирига ўтказиб (ё аксинча) юборса, таржима сифатига путур етади. Натижада, қахрамон характери ўзгариб кетиши, тўлиқ яратилмай қолиши мумкин.